

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

LINGUOPOETIC AND LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF WORD ORDER IN LIVE COLLOQUIAL SPEECH

Sobirov Anvar Kuvandikovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Director of the Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence

E-mail: anvarsobirov@1288gmail.com

Abstract. This article analyzes the linguistic, linguopragmatic, and linguopoetic features of word order in live colloquial speech. Although word order in Uzbek is traditionally described as relatively free, the study demonstrates its functional significance in communicative processes. Based on dialogic speech data, the positions of the subject, predicate, object, and adverbial modifiers are examined, along with inversion, ellipsis, and parenthetical constructions. Particular attention is given to the role of word order in shaping theme–rheme relations, logical stress, and expressive-emotional effects. The findings reveal that in live speech, word order functions not only as a grammatical phenomenon but also as a pragmatic and linguopoetic device.

Keywords: word order, colloquial speech, inversion, theme–rheme structure, linguopragmatics, linguopoetics, actual division.

JONLI SO‘ZLASHUV NUTQIDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Sobirov Anvar Kuvandikovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvistik, lingvopragmatik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin deb qaralishiga qaramay, uning kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlari keng ekani asoslab beriladi. Jonli dialogik nutq materiallari asosida ega, kesim, to'ldiruvchi va holning joylashuvi, inversiya hodisasi, ellipsis va kiritma birliklarning sintaktik pozitsiyasi ko'rib chiqiladi. So'z tartibining tema–rema munosabatini shakllantirishdagi, mantiqiy urg'uni belgilashdagi hamda emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijasida jonli nutqda so'z tartibi grammatik hodisa bilan bir qatorda pragmatik va lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: so'z tartibi, jonli nutq, so'zlashuv uslubi, inversiya, tema–rema, lingvopragmatika, lingvopoetika, aktual bo'linish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N24>

Kirish. Til inson tafakkuri, kommunikativ faoliyati va madaniy dunyoqarashining eng muhim ifoda vositasi sifatida nafaqat axborot uzatish, balki estetik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi. Ayniqsa, jonli so'zlashuv nutqi til tizimining eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo'lib, unda so'z tartibi kommunikativ maqsad, nutq vaziyati, emotsional-ekspressivlik va pragmatik niyatga ko'ra erkin hamda funksional xarakter kasb etadi. Shu bois jonli nutqda so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

An'anaviy sintaktik tadqiqotlarda so'z tartibi ko'proq grammatik me'yorlar asosida talqin etilgan bo'lsa, kommunikativ-pragmatik yondashuv uning nutqiy vaziyat, axborot tuzilishi, tema-rema munosabatlari hamda nutq subyektiining maqsad va niyatlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi[1, 47]. Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining o'zgarishi ko'pincha mantiqiy urg'u, emotsional ta'sirchanlik, baholash, presuppozitsiya, implikatura kabi pragmatik omillar bilan izohlanadi. Bu esa so'z tartibini nafaqat sintaktik hodisa, balki nutqning lingvopoetik va lingvopragmatik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Lingvopoetik nuqtai nazardan so'z tartibi nutqning obrazlilik, ekspressivligi va estetik ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Jonli nutqda ma'lum sintaktik modellarning buzilishi yoki inversiya hodisasi orqali fikrning ta'sirchanligi ortadi, nutq subyektiining individual uslubi va munosabati namoyon bo'ladi. Lingvopragmatik jihatdan esa so'z tartibi kommunikativ strategiya, nutqiy ta'sir, adresatga yo'naltirilganlik va nutqning ijtimoiy-psixologik omillari bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslik, pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida jonli so'zlashuv nutqining funksional imkoniyatlarini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Shu jihatdan so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish til birliklarining nutqiy faoliyatdagi real qo'llanish mexanizmlarini ochib berish, kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi omillarni aniqlash hamda milliy nutq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'z tartibi tilshunoslikda sintaktik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida o'rganiladi[2]. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z tartibi faqat grammatik munosabatlarni ifodalovchi vosita emas, balki kommunikativ-pragmatik va lingvopoetik ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining funksional imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbek tilida so'z tartibi ko'pincha erkin deb tavsiflanadi. Biroq bu erkinlik mutlaq emas. Gap bo'laklarining joylashuvi ko'p hollarda kommunikativ vazifa, axborotning aktual bo'linishi hamda emotsional-ekspressiv ehtiyoj bilan belgilanadi.

So'zlashuv nutqi va uning sintaktik tabiati. So'zlashuv nutqi – adabiy tilning og'zaki shakli bo'lib, bevosita muloqot jarayonida yuzaga keladi. Uning asosiy belgilariga spontanlik, situativlik, dialogiklik, nolisoniy vositalar bilan uyg'unlik kiradi. Jonli nutqda gaplar ko'pincha qisqa, elliptik va kontekstga tayangan holda quriladi[3].

Masalan: – Kecha darsga kelmading?– Ish qildim.

Bu yerda ega tushirilgan bo'lsa-da, muloqot ishtirokchilari uchun u aniq. Demak, so'z tartibi va gap tuzilishi kontekst orqali tiklanadi. Shunday vaziyatlarda sintaktik to'liqlikdan ko'ra kommunikativ yetarlilik ustuvor bo'ladi.

So'z tartibi va aktual bo'linish. O'zbek tilida odatdagi sintaktik model:

Ega → ikkinchi darajali bo'laklar → kesim [4]

Masalan: Men kecha Moskvadan keldim.

Biroq jonli nutqda so'z tartibi axborotning yangilik darajasiga ko'ra o'zgaradi: Moskvadan kecha men keldim.

Bu variantda ega (men) gap oxiriga surilib, rematik markazga aylangan. Demak, so'z tartibi tema–rema munosabatini shakllantiruvchi vositadir. Aktual bo'linish nazariyasi nuqtayi

nazaridan qaralganda, gap boshidagi bo'lak odatda tema, oxirgi bo'lak esa rema vazifasini bajaradi.

Inversiya va emotsional-ekspressivlik. Jonli nutqda inversiya keng qo'llanadi: – Angladingizmi, boy?

– Suz!

– Ichaylik!

Kesimning oldinga chiqishi nutqning illokutiv kuchini oshiradi. Bunday tartib buyruq, hayrat, ta'kid yoki kinoya ma'nosini kuchaytiradi. Inversiya lingvopoetik vosita sifatida qahramon nutqining tabiiyligini ta'minlaydi va uning xarakterini ochib beradi[5].

Kiritma birliklar va pragmatik qatlam. Jonli nutqda kiritma birliklar erkin joylashadi:

– Albatta, bugundan boshlaymiz.– Bugundan, albatta, boshlaymiz.

Bu birliklar so'zlovchining munosabatini bildiradi. Ularning sintaktik pozitsiyasi intonatsiya va pragmatik ehtiyojga bog'liq. Kiritma birliklar so'z tartibiga qo'shimcha ekspressiv qatlam kiritadi.

Natijalar va muhokama. Adabiy so'zlashuv stilida so'z tartibi nisbatan me'yoriy va to'liq shaklda namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv stilida esa ellipsis, qisqarish va sintaktik soddalashtirish kuchli[6]. Masalan:

– Qayerniki?

– Jizzaxning Shotisidan.

Bu yerda kesim tushirilgan, lekin kommunikativ ma'no saqlangan. Demak, so'z tartibi minimal shaklda ham samarali ishlaydi.

Lingvopoetik jihat. Badiiy va dramatik matnlarda jonli so'zlashuv elementlari so'z tartibi orqali poetik aktuallashadi. Inversiya, kesimning oldinga chiqishi, egani oxirga surish kabi usullar qahramon nutqini individuallashtiradi[7]. Shunday qilib, so'z tartibi estetik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi:

1. Grammatik munosabatdan ko'ra kommunikativ vazifani bajaradi.
2. Tema–rema tuzilishini shakllantiradi.
3. Emotsional-ekspressiv effekt yaratadi.
4. Nutq subyekti shaxsiyatini ochadi.
5. Lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Demak, so'z tartibi jonli nutqda nafaqat sintaktik, balki lingvopragmatik va lingvopoetik hodisadir.

Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur hodisa faqat sintaktik me'yorlar doirasida cheklanib qolmay, balki nutqning kommunikativ, ekspressiv va estetik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim funksional vosita hisoblanadi. Jonli nutq sharoitida so'z tartibi qat'iy grammatik qoliplarga bo'ysunmasdan, nutq vaziyati, kommunikativ maqsad, axborotning aktuallik darajasi, mantiqiy urg'u hamda so'zlovchining subyektiv munosabati asosida shakllanadi. Bu esa uning pragmatik va lingvopoetik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'z tartibining o'zgarishi orqali nutqda tema–rema munosabatlari aniq ifodalanadi, fikrning ta'sirchanligi ortadi, emotsional-ekspressiv rang-baranglik yuzaga keladi hamda adresatga yo'naltirilgan kommunikativ strategiya samarali amalga oshiriladi. Inversiya, aktualizatsiya, segmentatsiya kabi sintaktik hodisalar jonli nutqda

fikrning mantiqiy markazini ajratib ko'rsatish, baholash, ta'kidlash yoki qarama-qarshilikni ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Lingvopragmatik nuqtai nazardan so'z tartibi nutq subyektining kommunikativ niyati, presuppozitsiya, implikatura, nutqiy ta'sir va ijtimoiy-psixologik omillar bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. U orqali so'zlovchining nutqiy strategiyasi, adresatga munosabati, axborotning yangilik darajasi hamda nutqning funksional yo'nalishi aniqlanadi. Shu jihatdan so'z tartibi jonli muloqotda kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi muhim vositalardan biri sifatida baholanadi.

Jonli so'zlashuv nutqi til tizimining eng faol va dinamik ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda so'z tartibi qat'iy grammatik qoliplardan ko'ra kommunikativ maqsad, nutq vaziyati va emotsional-ekspressiv ehtiyojlar bilan belgilanadi. Shu jihatdan so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat sintaktik qurilishning funksional imkoniyatlarini, balki nutq egasining subyektiv munosabati, kommunikativ strategiyasi va estetik niyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Gap bo'laklarining odatiy joylashuvdan chetga chiqishi (inversiya, segmentatsiya, ellipsis, takror, parcellatsiya) nutqning ritmik tuzilishini kuchaytiradi, ma'no markazini ajratadi va emotsional-ekspressiv rang-baranglikni yuzaga keltiradi. Bunday sintaktik erkinlik og'zaki nutqning tabiiyligini ta'minlash bilan birga, undagi obrazlilik va individual uslubni shakllantiradi. Ayniqsa, dialogik nutqda replikalarning qisqaligi, mantiqiy urg'uning o'rni o'zgarishi hamda intonatsion bo'linishlar lingvopoetik effektni yuzaga keltiradi.

Gapning aktual bo'linishi – tema va rema munosabatlari, yangi va ma'lum axborotning joylashuvi, muloqot ishtirokchilarining kommunikativ niyatiga ko'ra sintaktik strukturaning o'zgarishi bilan bevosita bog'liq. So'z tartibining o'zgarishi orqali so'zlovchi muhim deb hisoblagan axborotni oldinga chiqaradi, e'tiborni kerakli komponentga qaratadi, suhbatdoshga ta'sir o'tkazadi yoki baholovchi munosabatini ifodalaydi. Bu esa og'zaki nutqda so'z tartibining pragmatik yukini oshiradi.

Shuningdek, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi diskursning kontekstual va situativ omillariga ham bog'liq holda shakllanadi. Nutq jarayonida mantiqiy izchillikdan ko'ra kommunikativ tezkorlik, spontanlik va interaktivlik ustun bo'lganligi sababli gap bo'laklari ko'pincha semantik markaz atrofida joylashadi. Natijada sintaktik struktura axborotning qabul qilinish qulayligi va muloqotning samaradorligiga xizmat qiladi.

Demak, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi nafaqat grammatik hodisa, balki lingvopoetik ifoda vositasi va lingvopragmatik strategiya sifatida namoyon bo'ladi. U nutqning emotsional-ekspressivligini, kommunikativ yo'naltirilganligini va diskursiv yaxlitligini ta'minlab, tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibi lingvopoetik jihatdan nutqning obrazlilik, ifodaliligi va individual uslubiy xususiyatlarini shakllantirishda, lingvopragmatik jihatdan esa nutqning maqsadga yo'naltirilganligi va ta'sirchanligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Bu holat so'z tartibini tilning faqat grammatik kategoriyasi emas, balki kommunikativ-pragmatik va estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan ko'p funksiyali hodisa sifatida talqin etish zarurligini asoslaydi.

Demak, jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini kompleks o'rganish tilning antropotsentrik mohiyatini ochib berish, nutq jarayonida sintaktik birliklarning real funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda milliy nutq

madaniyatining o'ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari pragmalingvistika, diskurs tahlili va funksional sintaksis yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Shomaqsudov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001. -B.58.
3. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. -B. 124.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008. -B.36.
5. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. -P. 179.
6. Valgina N.S. Теория текста. – Москва: Логос, 2003. -С. 97.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. -С.72.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).